

## **“HOLATNI HARAKAT TARZIDA REALLASHTIRUVCHI YORDAMCHI FE`L - ETMEK XUSUSIDA”.**

*Davlatov Zoirjon Zokiraliyevich*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universitetio ‘qituvchisi*

*E-mail: zoirjondavlatov133@gmail.com*

**Annotatsiya.** Holatni harakat tarzida reallashtiruvchi yordamchi fe`l – etmek tahlili xususida ma’lumot beriladi.

**Annotation.** Information is provided about the analysis of the auxiliary verb - etmek, which realizes the situation in the form of action.

**Аннотация.** Приводится информация об анализе вспомогательного глагола - этмек, реализующего ситуацию в форме действия.

**Kalit so‘zlar:** etmek, leksema, sema, bosh ma’no, mustaqil ma’no, ravish, sifatdosh, harakat nomi, modal so‘z.

**Key words:** etmek, lexeme, sema, main meaning, independent meaning, adverb, adjective, verb, modal word.

**Ключевые слова:** этмек, лексема, сема, основное значение, самостоятельное значение, наречие, прилагательное, глагол, модальное слово.

### **Kirish.**

O`zbekiston mustaqillikka erishgach, xorijiy tillarni o`rganish, o`rgatishga bo`lgan ehtiyoj ortdi. Zero, chet tillarni mukammal egallash o`z navbatida bu sohaning yetuk bilimdonlarini, tarjimonlarni etishtirish imkonini beradi. Bu holat chet mamlakatlar bilan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash imkonini yaratadi. Shu bois, xorijiy tillar, jumladan, turk tilining spetsifik belgilarini tadqiq etish va aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Turk tilining fonetik, leksik,

morfologik, sintaktik xususiyatlari turk va xorijlik tilshunoslar, jumladan, rus turkologlarning qator tadqiqotlarida maxsus o`rganilgan. Quyida turk tilidagi **etmek** fe`lining semantik tahlilini ko`rib chiqamiz.

### **Asosiy qism.**

**Etmek** fe`li turk tilidagi faol yordamchi fellardan biri hisoblanadi. Bu yordamchi fe`l keng ma`nodagi ot turkumiga kiruvchi so`zlar ishtirokida keladi va qo`shma fe`llarni hosil qiladi. [8, B.1] Masalan: *Sen, Sara Hanimla yemege devam edersin* (R.N.G.). *Sen Sara xonim bilan ovqatlanishda davom etasan*.

**Etmek** fe`li yakka holda ishlatalishi mumkin. Bu xolda so`z ma`nosи kontekstda anglashiladi, biroq bu fe`l leksema **yapmak, kilmak** so`zlariga xos ma`noni anglatadi. Masalan: *Eden bulur, ünleyen ölüür* (Atasözü). *Izlagan topadi*. Mazkur maqoldagi **etmek** fe`li aslida “qilmoq”, “ishlamoq”, “shug`ullanmoq” ma`nolarini bildiradi.

**Etmek** yordamchi fe`li kontekstda “biron-bir yomon ish qilmoq, yomon yo`l tutmoq” ma`nolarini ifoda etish mumkin: *Etme komşuna gelir başına* (Ataso`zu). *Qo`shninga yomonlik qilsang, o`zingga qaytadi. Felek bana neler etti?* *Taqdir mening boshimga nima kunlarni solmadi? Ben ettim, sen etme. Men yomon ish qildim, sen qilma. Ettin mi edecekini? Qiladiganingni qilib bo`ldingmi? Biz tevekkеле mi o kadar inat ettik. Görüyorsun ya bize de ettin, kendine de ...* (R.H.K.). *Biz tavakkalga shunchalik qaysarlik qildik, ko`ryapsanki, bizga ham qiladiganingni qilding, o`zingga ham...*

**Etmek** yordamchi fe`li quyidagi so`z turkumlari ishtirokida kelishi mumkin:

**Ot+etmek** yordamchi fe`li: *Mesela beraber dansettiğimizi farzedelim* (R.N.G.). Masalan, birga raqs tushganimizni tasavvur qilaylik.

**Ravish + etmek** yordamchi fe`li: *Kolombo dönüsü ne varsa altüst etmiş* (R.H.K.). *Kolomboga qaytishi hamma narsani ostun-ustun qilibdi.*

**Modal so`z + etmek fe`li:** *Seni kurtarmalı fakat yok etmekle de kurtarmak mümkündür (R.H.K.). Seni qutqarish kerak, faqat yo`q qilish bilan ham qutqarish mumkin.*

**Sifat + etmek yordamchi fe`li:** *Onu yakından çehreme bakmaya mecbur etmek için adeta yüzsüzce uğraşıyordum (R.N.G.). Uni yuzimga yaqindan qarash uchun majbur qilish deyarli surbetlarcha harakat qilayotgan edim.*

**Etmek** yordamchi fe`li ikki va undan ortiq bo`g`inli so`zlar bilan kelganida ajratib yoziladi. Bu fe`l bir bo`g`inli otlar bilan kelganida qo`shilib yoziladi. Qiyoslang: *Yalniz dikkat et. Ateşin şiddeti sana mantiğindaki selameti kaybettirmesin (R.N.G.). Faqat diqqat qil. Olovning shiddati sendagi mantiqiy mushoxadani yo`qotmasin.* **Etmek** yordamchi fe`li ayrim bir bo`g`inli so`zlar ishtirokida kelganida, so`z oxiridagi undosh ikkilanadi. Masalan: *Sicagi duymuyordum ve aklimdan geğerdiklerim için nezaketten olsun özür dilemeğe gerek hissetmiyordum (R.H.K.). Issqni sezmayotgan edim va hayolimdan o`tkazganlarim uchun, yo`liga bo`lsa ham, uzr so`rashga zaruryat his qilayotgan edim.* **Etmek** fe`li ayrim so`zlar ishtirokida ishlatalganida so`nggi bo`g`in tarkibidagi unli tushirib qoldiriladi hamda ushbu so`z yordamchi fe`lga qo`shib yoziladi: [6, B. 12] **azim+etmek –azmetmek, bahis+etmek –bahsetmek, hukum+etmek-hükmetmek, keşif+etmek-keşfetmek.** Masalan: *O senden çok bahsetti (R.N.G.). U sen haqingda ko`p gapirdi.*

*Üç yıldır Cava`da oturmaktadır; Tayfur ile beraber gelmişler; o yerinden hazzetmiş (R.H.K.). Uch yıldan beri Javada yashamoqda, Tayfur bilan birga kelibdilar, o`sha yerdan mamnun bo`libdi. Nilgun`un bir hunerini daha keşfetmeye memnun oldum (R.H.K.). Nilgunning yana bir hunarini kashf etganim uchun hursand bo`ldim.*

Keltirilgan misollardagi **hazzetmek, altüst etmek, keşfetmek** leksemalari konteksga bog`liq ravishda muayyan vaziyat, ahvol, sharoitni yuzaga keltirmoq semasini ifoda etgan.

Otlar ishtirokida kelagan **etmek** yordamchi fe`li bosh komponentdan anglashilgan tushunchaning amalga oshirilishi ma`nosini ifoda etadi: *Sana bir aydir yazmadim diye şikayet ediyorsun* (H.E.A.). *Senga bir oydan beri yozmadim, deb shikoyat qilyapsan.* Bu misoldagi **şikayet** –shikoyat so`zining mavhum tushunchalik semasini harakatga aylantirish, ya`ni harakat bajaruvchiga ma`qul tushmagan biron-bir ishga, holatga bo`lgan salbiy munosabatini ifodalash uchun qo`shimcha ravishda **etmek** leksemasi qo`llangan.

Bu yordamchi fe`l “yashamoq, umr ko`rmoq” ma`nolarini ifoda etishi mumkin: *Çocuk oynamadan edemez. Bola o`ynamasdan turolmaydi. İnsan susuz edebilir mi? Odam suvsiz yashay oladimi?*

“bir ishni qilmoq” ma`nosi ham **etmek** fe`lining ma`nolaridan biri sifatida e`tirof etiladi. Masalan: *Şimdi artık öğrendin... Ona göre hareket edeceksin* (R.N.G.). *Endi o`rganding. Shunga muvofiq harakat qilasan. Bu güzel mehtap gecesinden sizde unutulmaz bir hatira bırakmaya elden geldigi kadar gayret ederiz* (R.N.G.). *Bu go`zal oydin kechada sizlarda unutilmas bir xotira qoldirish uchun qo`limizdan kelganicha g`ayrat qilamiz* (R.N.G.)! Demak **etmek** fe`li hareket-harakat, gayret-g`yrat mavhum otları semalariga asoslangan holda muayyan harakatni amalga oshirish semasini anglatgan.

**Etmek** fe`li “ma`lum bir vaqtinchalik ish bilan mashg`ul bo`lmoq, shug`ullanmoq” ma`nolarini ifoda etish mumkin. Masalan: *Bir gün raslantilar gene bizi karşılaşır, yataşmış olabiliriz; korkuzca arkadaşlık ederiz!* *Bir kuni bizni yana uchrashadiradi, o`shanda o`zimizga kelgan, tinchlangan bo`lishimiz mumkin, ko`qmay do`s st bo`la olamiz.* Bu misolda **arkadaşlık** –do`stlik so`zi bilan **etmek** fe`li so`zlovchining doimiy bo`lmagan, balki, aksincha, malum bir muddatda yuzaga chiqqan harakat, holat ma`nosini ifodalaydi. Muayyan semali so`zlar ishtirokida kelgan **etmek** so`zi “biror kasb-hunar bilan mashg`ul bo`lmoq” semasini reallashtiradi. Masalan: *Ona Şanghay`da bir dana rastladim, sigara küllerinden anlam çıkarmak suretiyle bavcılık ediyordu* (R.H.K.). *Unga Shanxayda bir marta*

duch keldim. Sigareta kuli yordamida fol ochar, folbinlik bilan shug`ullanardi. Alman subaylar **öğretimlik ettiler** (R.H.K.). Nemis ofitserlari ustozlik qilishdi. Qayd etilgan ma`no **etmek** leksemasi kasb - hunar semali otlar, masalan, **bavicilik-folbinlik, öğretmenlik-** o`qituvchilik so`zлari bilan ishlatilganida anlashiladi.

“Biron –bir harakat, ish bilan shug`ullanmoq” semali **etmek** fe`li o`zi birikib kelgan so`zning ma`nosiga bevosita bog`liq ravishda quyidagi ma`no nozikliklarini reallashtirishlari mumkin:

Yetakchi komponentning ma`no ko`lami asosida **etmek** fe`li jismoniy harakat, ishni amalga oshirmoq mazmunini tashiydi: *Ben telefon edeyim, bavulların gönderilip gönderilmegini sorayım, akşamda haraket edeceğini de haber vereyim* (R.H.K.). *Men telefon qilay, sumkalarıng jo`natilib-jo`natilmaganını so`rab-surishtiray, oqshomga yaqin yo`lga chiqishni xam xabar qilay.* Ayni gaplardagi telefon etmek, hareket etmek fe`llari jismoniy jihatdan biror ishni amalga oshirish mazmunini ifoda etadi.

**Etmek** fe`li bevosita matn, shuningdek, sintaktik qurshov asosida aqliy mehnat bilan shug`ullanish, aqliy ish semalarini ifodalaydi.

Masalan: *Bunları vapur yolcularından bir ispanyol bilgini bana okuduğu kendi dilende bir kitaptan tercüme ederek söylüyor* (R.H.K.). *Bularını paraxod yo`lovchılardan bo`lgan bir ispan olimi ona tilidagi bir kitobdan tarjima qilib so`zlayaptı.* Demek ki Kabil`den bonusumu **hesap etmiş**, beni çağırıyor (R.H.K.). *Demakki Kabildan qaytışımni xisob-kitob qilgan, meni chaqirayaptı.* Mazkur gapdagи **tercüme-etmek-** tarjima qilmoq, **hesap etmek-** hisoblamоq leksemalari xarakat bajaruvchining aqli, bilimi orqali amalga oshgan xarakatlarni bildiradi.

Makur yordamchi fel “amlga oshirmoq”, “yuzaga chiqmoq” “vujudga keltirmoq” semalariga ega bo`lishi mumkin. Masalan: *Küçük Hanımın, birine tutulduktan sonar o güne kadar yüksektен baktığı, hiçe saydiği evlatlık veya aşçı kadınla dertortaklığı ve işbirliği etmesi gibi ben de Tayfur`dan yardım umuyorum* (R.H.K.). *Kichik xonimning birovni sevib qolganidan keyin to o`sha kungacha*

*yuqoridan qaragani, odam o`rnida ko`rmagan o`gay farzandi yoki oshpaz ayol bilan dardkashlik, hamkolik qilgani kabi men ham Tayfurdan yordam berishiga umid qilyapman.* Keltirilgan gapdagi **etmek** fe`li ma`lum bir vaziyat, ya`ni dardkashlik, hamkorlik holatining yuzaga chiqishi semasini ifodalashga xizmat qilgan.

**Xulosa.** Misollar tahlili natijasida quyidagilarni xulosalashimiz mumkin: **Etmek** fe`li turk tilidagi yordamchi fe`llar orasida faolligiga ko`ra ikkinchi o`rinda turadi. Bu fe`l leksemasi yakka holda qo`llanilishi mumkin, lekin asosan keng ma`nodagi otlar ishtirokida keladi. Shuni e`tirof etishimiz zarurki, **etmek** fe`lining yakka qo`llanilishi ko`pincha kontekst talabiga ko`ra amalga oshadi. **Etmek** fe`li sintaktik qurshovi, konteksga va albatta unga birikkan tobe komponentning ma`nosiga bog`liq ravishda yigirmadan ortiq semani ifodalashi kuzatiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Abduraxmonova M. O`zbek va turk tillarida ot kategoriylarining talqini: Filol fan. Nomz ... dis. Avtoref. T., 2004.- 26 b.
2. Айляров Ш.С. Развёрнутые члены предложения в современном турецком языке .-М.: Изд. МГУ, 1974. - 227 с.
3. Atabay N., Kutluk İ., Özel S. Sözçük Türleri. - Ankara: Ankara Üniversitesi basimevi, 1976. S.
4. Atabay N., Özel S., Ayfer Ç. Türkiye Türkçesinin Sözdizimi.-İstanbul: Papatya, 2003. -142 s.
5. Hengirmen M. Türkçe Dilbilgisi. –S. 268.
6. Karay R.H. Nilgün. - İstanbul:İnkilap, 1986.-754 s.
7. Karay R.H. Memleket hikayeleri. - İstanbul: İnkilap:19.-s.
8. Örnekleriyle Türkçe Sözlük. –İstanbul: Doğan A.Ş., 2004, -C,3.-S.2159.